

## Ekologik Barqarorlik-Salomatlik Garovi

*JDPU Zoologiya va anatomiya kafedrasida o'qituvchisi*

**Xolmirzayeva Aziza Abdilbase qizi**

*JDPU O'zbek tili va adabiyoti fakulteti talabasi*

**Karimova Farangiz Iftixor qizi**

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada ekologiya va atrof – muhit masalasi va unga insonlarning ta'siri oqibatida vujudga kelgan muammolar ketirilgan. Bugungi kunda davlatimizda ekologiyani saqlab qolishga qaratilgan chora tadbirlar haqida yoritilib berilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Ekologiya, partiya, global muammolar, kislorod ombori, atrof – muhit.*

Tabiatni biz, odatda, onaga tenglashtiramiz, unga qiyoslab ona tabiatimiz deb ataymiz. Ma'naviy va ma'rifiy barkamollikni inson salomatligisiz tasavvur qilish juda qiyin. Sog'lom turmush tarzi – bu insonning hayoti va salomatligi xavfsizligini ta'minlashga xizmat qiluvchi ko'nikmalarga ega bo'lishi asosida hayotiy faoliyatini yo'lga qo'yish hamda salomatligining yuqori darajada bo'lishiga erishishni ta'minlash shakli bo'lib, u kun tartibiga rioya qilish, faol jismoniy harakat asosida organizmni chiniqtirish, sport bilan shug'ullanish, to'g'ri va sifatli ovqatlanish, gigiena qoidalariga rioya qilish, ekologik muloqot va madaniyatga erishish, umuminsoniy va o'zbekona qadriyatlar asosida ma'naviy tarbiyaba olish, zararli odatlardan o'zini tiya bilish holatlarining mavjudligi bilan tavsiflanadi. Ona tabiatni o'z Vatanini sevgandek sevgan, aziz deb bilgan, uni ardoqlagan har bir inson ekologiyani ham, atrof- muhitni ham asrab avaylaydi. Ona tabiatga oqilona munosabatda bo'lish, o'simlik va hayvonot olamini asrab-avaylash, kelajak avlodga tabiat boyliklarini bus-butun yetkazish, global ekologik inqiroz asoratlarining oldini olish bugun insoniyat oldiga o'ta dolzarb vazifalarni qo'ymoqda. Har yili dunyoning qator davlatlarida 5 – iyun – Jahon atrof – muhitni muhofaza qilish kuni sifatida keng nishonlanishi zamirida ham dunyo hamjamiyati diqqatini ekologik muommolarga qaratish, insonlarni tabiatga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga undash maqsadlari mujassamdir. Sana munosabati bilan yurtimizda ham qator tadbirlar, ko'rik – tanlovlar, obodonlashtirish aksiyalarini o'tkazish an'anaga aylangan.

Rus shoiri M.Yu.Lermontovning ekologiya haqidagi quyidagi iqtibosini keltirib o'tsak, "Jamiyat sharoitidan uzoqlashib, tabiatga yaqinlashib, biz beixtiyor bolalarga aylanib qolamiz". Ekologiya, tabiatning muhim omili bu - inson sanaladi. Tabiat bevosita inson bilan aloqaqdor. Tabiatga insonning aralashuvi hamisha ham yaxshilik keltiravermaydi. Bunga misol qilib keltiradigan bo'lsak, tabiatning eng oliy ne'matlaridan, shuningdek to'rt unsurlardan biri bo'lgan suvga bo'lgan shafqatsizlarcha munosabat natijasida nafaqat o'zbek xalqi, balki butun Markaziy Osiyo xalqlari Orol dengizining qurishidek insoniyat tarixidagi eng falokatli, global ekologik muammoni o'z boshidan kechirmoqda. Shuningdek,

is'temol suvining ham kamayib ketishi natijasida aholi o'rtasida tanqislik vujudga kelmoqda. Ba'zi davlatlar is'temol suvi sifatida sho'r va zararli okean hamda dengiz suvlarini is'temol qilmoqda. Inson organizmini ta'minlovchi muhim jarayon kislorod bilan ta'minlovchi va "kislorod ombori" deb ataluvchi o'rmonlarning kesilishi va kamayib ketishi natijasida ham bir qancha ekologik muammolar vujudga kelmoqda. Shuningdek, eng dolzarb muammolardan biri hisoblangan zavod va fabrikalardan chiqayotgan zaharli havoning atrof- muhitga va uning inson salomatligiga ta'siri, cho'llanish, yer va suv resurslarining tanazzuli, o'simlik va hayvonot olamining genefondining yomonlashuvi, biologik xilma – xillikning qisqarishi, ko'p miqdordagi sanoat, maishiy va boshqa chiqindilarning hosil bo'lishi kabi eng global muammolarni keltirib o'tmasak bo'lmaydi, albatta. Avvalo, inson salomatligi, sog'lom turmush tarzi haqida gapirar ekanmiz, ushbu muammolarni hal qilmasak sog'lom hayotga va barqaror ekologiyaga ega bo'la ololmaymiz. "Insonning tabiat ishlariga aralashuvi oxir – oqibat kulfat keltiradi, Yer sayyorasi tezlik bilan keksayib boryapti" K.E.Siolkovskiyning ushbu gapi yuqoridagi fikrlarimizning isboti bo'ladi.

Bugungi kunga nazar tashlar ekanmiz, mamlakatimizda ekologik barqarorlikni ta'minlash, muammolarni bartaraf qilish va salbiy oqibatlarining oldini olish borasida jamiyatning turli qatlamlariga mansub fuqarolarning faol qatnashuvi bo'lmoqda. Shu nuqtai nazardan olib qaraganda, atrof – muhitni muhofaza qilish va aholi salomatligini saqlash sohasida faoliyat yuritayotgan milliy hamda chet el jamoat tashkilotlari va harakatlarining ijobiy tajribalarini o'zlashtirgan siyosiy kuch – partiya bunday muhim maqsad hamda vazifalarni bajarishga qodir ekanligini e'tirof etish zarur. Prezidentimizning Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasidagi g'oyalar hamda mamlakatda davlat va jamiyat qurilishi sohasida amalgam oshirilayotgan islohotlar yo'lidagi keyingi qadam sifatida mamlakat siyosiy maydonida yangi – O'zbekiston Ekologik partiyasu tashkil etidi. Ushbu ekologik partiyaning tashkil topishi tariximizda katta evrilish bo'lib, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan strategiyaning yaqqol hosilasidir. Aholi bilan muloqotlar jarayonida partiyaning vujudga kelishi nafaqat ekologlar, balki keng jamoatchilikning ushlangan orzusi ekanligi e'tirof etilmoqda. Bu partiyaning tashkil etilishi yurtimizning jahon hamjamiyati oldidagi nufuzini, imijini oshirish uchun muhim omil bo'ldi. Bu mamlakatimizda ekologik masalalarga yuksak e'tibor qaratilayotganligining bir namunasi va xalqaro maydonda O'zbekistonning brendi bo'ldi, desak, also mubolag'a bo'lmaydi. Ko'rsa ko'zni quvontiradigan bir hodisani ham aytib o'taylik. Prezidentimizning ilk marotaba o'zbek tilidagi BMTning 75-sessiyasidagi nutqida asosiy muammo Orol dengizi muammosi va uning yechimini topish bo'lgan edi. Shuningdek, Prezidentimizning 2-fevral kuni "Aholining ekologik madaniyatini oshirish haqida jiddiy bosh qotirishimiz zarur" nomli nutqi ham katta e'tibor sanaladi. Davlatimiz rahbari har tomonlama mazkur sohada konstruktiv takliflar hamda tashabbuslar nafaqat mamlakatimizda balki xalqaro jamoatchilik tomonidan ham katta qiziqish bildirilib, e'tirof etilmoqda. Umuman olganda, aholi sog'lom va munosib hayot kechirishning muhim omili – ekologik barqarorlikni kafolatlash, tabiiy resurslarning barcha majmuini muhofaza qilish hamda ulardan oqilona foydalanishni so'zsiz

ta'minlashga qaratilgan tashkiliy – huquqiy asoslarni takomillashtirish doimiy ustuvorlik kasb etmoqda. Zero, dunyoda ekologik barqarorlikni nainki tabiat, balki insoniyatning hayot- mamot masalasiga aylanib borayotgan ayni paytda atrof – muhit muhofazasini yaxshilashga dolzarb vazifa sifatida qarash,, kelajak avlodlarimiz taqdiri uchun ham mas'ul ekanimizni unutmashlik darkor.

#### **ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Sh. Mirziyoyev. “Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz”. Toshkent . 2016-yil.
2. Sh. Mirziyoyev. Ekologik holatni yaxshilash va atrof-muhitni muhofaza qilish masalalariga bag'ishlangan yig'ilishidagi nutqi. 2018-yil. 2-fevral.
3. Sh. Mirziyoyev. BMT Bosh Assambleyasi 75-sessiyasidagi nutqi. 2020-yil. 20-sentabr.
4. <https://library.samdu.uz>
5. <https://uzbaza.uz>
6. <https://www.gazeta.uz>